XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 2 - avgust VI-82-63-2-0-K/23 Buxoro viloyati hokimligi

“Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi xizmatlari uchun narx (tarif)larni tartibga solish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-son Farmoni, “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJning 2023-yil 15-fevraldagi 20-30/884-son, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2023-yil 14-fevraldagi 271/01-06-son hamda viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 15-fevraldagi 01/06/20-05-38/163-son xatlariga asosan “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi xizmatlari uchun narx (tarif)larni tartibga solish maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILDI:

1. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi hamda viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi xizmatlari uchun narx (tarif)lar yuzasidan xulosalari inobatga olinsin.

2. “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi xizmatlari uchun narx (tarif)larni quyidagicha:

1 m^3 ichimlik suvini neftchilar shaharchasidagi aholiga sotish uchun 800 so‘m *(QQS siz)*;

1 m^3 ichimlik suvini “Buxoro suv ta’minoti” MCHJ Qorovulbozor tuman filialiga sotish uchun 1000 so‘m *(QQS siz);*

1 m^3 ichimlik suvini “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ, budjet tashkilotlari va boshqa ulgurji iste’molchilarga sotish uchun 3800 so‘m *(QQS siz);*

1 m^3 ichimlik suvini “Muborakneftgaz-suvta’minot” MCHJga sotish uchun 1400 so‘m *(QQS siz)* etib belgilash ma’qullansin.

3. “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ (A.Fazilov)ga tariflarni amalda qo‘llash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuni va tegishli qonun osti hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta’minlash topshirilsin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 14.04.2021 yildagi 170/33-VI-sonli “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MChJ tomonidan ko’rsatiladigan suv ta’minoti xizmati uchun tarif narxlarini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

6. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **B.K.Zaripov**